



AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA AMALIYOTIDA ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI

Qozoqboyeva Gulibahor Abdug'affor qizi

Toshkent farmatsevtika instituti 2-bosqich magistranti

e-mail: gulibaxorkazakbayeva@gmail.com

Rajabova Nargiza Xalimovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Farmatsevtika ishini tashkil qilish
kafedrasida katta o'qituvchisi, farmatsevtika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

e-mail: nargiza-rh@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19438109>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 31-mart 2026 yil

KEYWORDS

assortiment tahlili, dori vositalari, akusherlik, ginekologiya, Davlat reestri, yangilanish indeksi, xalqaro patentlanmagan nomi, dori shakli, farmokoterapevtik guruhlar.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasida akusherlik va ginekologiya kasalliklarini davolashda zamonaviy yondashuvlarga va yangi murakkab dori vositalarining istiqbollari alohida e'tibor qaratilmoqda. Akusherlik va ginekologiya kasalliklarini o'rganish sohasidagi yutuqlar va yangi dori vositalarining yaratilishini hisobga olgan holda, ushbu kasallikni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari assortimentini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada farmatsevtika bozorida akusherlik va ginekologiya kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dori vositalarining assortiment tahlilini o'rganish natijalari keltirilgan. 2020-2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestriga kiritilgan akusherlik va ginekologiya amaliyotida ishlatiladigan dori vositalari assortimenti tahlil qilingan. Tahlili natijalari bemorlarning ehtiyojlari va sifat talablariga mos ravishda taqdim etilgan bo'lib, ular farmatsevtika sanoatidagi ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar va tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Dolzarbli. Dunyoda akusherlik va ginekologik muammolar ayollar salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Hozirgi kunda butun dunyoda akusherlik va ginekologiya kasalliklarini to'g'ri va o'z vaqtida davolamaslik sababli kasallikning og'ir bosqichiga o'tishi, hattoki uning oqibatida onkologik kasalliklarni rivojlanishi ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha eng ko'p polikistoz tuxumdon sindromi, endometrioz, bachadon miomasi (fibroidlar), bachadon bo'yni saratoni, vaginit kabi kasalliklar ko'p uchrashi aniqlanmoqda [1,2]. Xususan tuxumdon polikistoz sindromi reproduktiv yoshdagi eng keng tarqalgan kasalliklardan biri va ayollarning 8-13 % aniqlanadi [3]. Kasallik 15-29 yoshli ayollar orasida ko'p uchrashi, xususan, 20-24 yosh oralig'ida katta o'sish kuzatilgan [4]. Dunyo bo'yicha bachadon bo'yni saratoni ayollar orasida eng ko'p uchraydigan

to'rtinchi saraton turi hisoblanadi. 2022-yilda global miqyosda 662 301 ta yangi, undan taxminan 350 000 o'lim holati qayd etilgan [5]. Bachadon bo'yni saratoni kasalligi bilan 2023 yilda O'zbekistonda 1884 ta yangi holat qayd etilgan va 941 nafar ayol ushbu kasallikdan vafot etgan [6]. Kasallikning kech aniqlanishi (III-IV bosqichda) o'lim holatlarini ko'payishiga sabab bo'lib kelmoqda. Bunga ayollarning ginekologik muammolar haqida gapirishdan tortinishi, tibbiy ko'riklardan o'z vaqtida o'tmasligi kasalliklarning kech aniqlanishi sabab bo'lmoqda.


Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 30 yil ichida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bachadon bo'yni saratoni bilan kasallanish va bachadon bo'yni saratoni tufayli o'lim darajasi sezilarli darajada kamaygan. Bu, asosan, samarali sitologik skrining joriy etilgani, shuningdek, saraton oldi kasalliklari va bachadon bo'yni saratonining dastlabki bosqichini o'z vaqtida davolash samarasidir [7].

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan bolalarda kam uchraydigan orfan kasalligi va boshqa irsiy-genetik kasalliklar bilan tug'ilgan chaqaloqlarni bepul dori vositalari, tibbiy buyumlar va maxsus oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash joriy etilib, ularga tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatish ko'lami kengaytirildi [8]. Shunga asosan, akusherlik va ginekologiya amaliyotida ishlatiladigan dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichlarini o'rganish farmasevtikada dolzarb muammolardandir.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozoridagi ro'yxatdan o'tgan akusherlik va ginekologiya amaliyotida ishlatiladigan dori vositalar assortimenti marketing tahlilini o'tkazishni maqsad qilib olindi.


Material va uslublar. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillardagi Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri (Davlat reyestri) [9,10,11,12,13] ma'lumotlaridan foydalanildi. Dori vositalarini assortiment tahlilini o'tkazishda kontent tahlil, assortiment kengligi, to'liqliligi, chuqurligi va yangilanish indeksi kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Izlanishlarimiz obyekti sifatida, O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillardagi Davlat reyestridagi ma'lumotlari olindi unga ko'ra, akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalarining 363 ta savdo nomi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan. 2020-yil 55 ta 2024-yil 69 ta savdo nomi bilan ro'yxatga olingan ya'ni 5 yilda bu ko'rsatkich 1,25 baravar oshgan. Dori vositalarining ro'yxatdan o'tishi bo'yicha 2022-yilda eng yuqori 81 ta dori vositasi ro'yxatdan o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan 2020-2024 yillardagi akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalarning assortiment kengligi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda ro'yxatdan o'tgan akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalarning assortiment kengligi

Keyingi bosqichda xorijiy va mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarining ishlab chiqaruvchilari bo'yicha tahlil qilindi. Mamlakatimizda 5 yil ichida xorijiy 19 ta davlatlar tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalar ro'yxatga olingan va ulardan Hindiston 42,30 %, Argentina 10,90 %, Germaniya 12,70 % va boshqa davlatlar 34,10 % tashkil qiladi. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari ishlab chiqaruvchilari esa xorijiy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kam ro'yxatga olingan. Ishlab chiqaruvchilar orasida Rossiya federatsiyasida ishlab chiqarilgan dori vositalari 41,17 % tashkil qiladi. Tahlil natijalari quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda ro'yxatdan o'tgan akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalarning ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha solishtirma tahlil natijalari


O'zbekiston Respublikasi 14 ta mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 55 xil savdo nomidagi dori vositalar ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tgan. Mahalliy korxonalardan «MerryMed Farm» MCHJ tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalar eng yuqori ko'rsatkichga ega. Mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarining ro'yxatga olinish natijalarining 5 yillik ma'lumotlari quyidagi 1-jadvalda ko'rsatilgan.


1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda ro'yxatdan o'tgan akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalari ishlab chiqaruvchi mahalliy farmatsevtik korxonalar bo'yicha tahlil

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar nomi	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Dentafill Plyus MCHJ	-	9,1%	7,1%	7,1%	7,1%
Grace farm MCHJ	50%	9,1%	7,1%		-
Merrymed Farm MCHJ	-	9,1%	21,4%	21,4%	21,4%
Pharmacon MCHJ	-	36,3 %	21,4%	28,5 %	57,1 %
Radiks MCHJ	-	9,1%	14,2%	14,2%	-
Sharq darmon MCHJ	-	18,1%	21,4%	21,4%	14,3%
Sog'lom yurak MCHJ	50%	9,1%	7,1%	7,1%	-

Keyingi bosqichda ro'yxatdan o'tgan dori vositalarinning dori shakli bo'yicha tahlili olib borildi. Dori vositalari asosan ichish uchun tomchilar, kapsulalar, krem, suspenziya tayyorlash uchun liofilizat, suspenziya tayyorlash uchun kukun, eritma tayyorlash uchun kukun, mahalliy qo'llash uchun ishlatiladigan kukun, inyeksion eritma, mahalliy qo'llash uchun eritma, shamcha, gel va sirop shaklida ishlab chiqarilishi aniqlandi. Xorijiy, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari va mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda asosan dori vositalar shamchalar, kapsulalar va tabletkalar dori shakli bo'yicha ishlab chiqarish miqdori yuqoriligi aniqlandi. Natijalar bo'yicha ma'lumotlar 3-rasmda ko'rsatilgan.





3-rasm. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan dori vositalarining dori shakllari bo'yicha solishtirma tahlili

Tahlilimizning keyingi bosqichida ro'yxatdan o'tgan dori vositalarining farmakoterapevtik guruhlarini bo'yicha olib borildi. Bunga ko'ra 2020-2024 yillarda ro'yxatdan o'tgan dori vositalarining 12 xil farmakoterapevtik guruhlar mavjud bo'lib, turli xil Anatomik-Terapevtik-Kimyoviy (ATK) bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Ular orasida ATK kodi bo'yicha tasnifi keltirilmagan dori vositalari ham mavjud ekanligi aniqlandi. ATK kodi bo'lmaganlari turli xil o'simlik xomashyolardan tayyorlangan fitopreparatlar kombinatsiyasidan iborat dori vositalari bo'lib, Pokiston davlatida ishlab chiqarilgan. Farmakoterapevtik guruhlar nomi va ro'yxatga olinish miqdori ko'rsatkichlari 2- jadvalda berilgan.

Jadvalda 2020-2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida akusherlik va ginekologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining farmakoterapevtik guruhlarini bo'yicha assortiment tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda dori vositalari nomenklaturasi barqaror o'sish va qisman yangilanish tendensiyasiga ega. Tahlil natijalariga ko'ra, eng katta ulushni G01 guruhi - ginekologiyada qo'llaniladigan mikroblarga qarshi preparatlar va antiseptiklar egallaydi. Xususan, kortikosteroidlarsiz kombinatsiyalangan mikroblarga qarshi preparatlar (G01A) soni 2020 yildagi 22 nomdan 2022-2023 yillarda 43 nomgacha oshgan, 2024 yilda esa biroz kamayib 36 nomni tashkil etgan. Kortikosteroidlar bilan kombinatsiyalangan preparatlar (G01B) esa kamroq ulushni egallab, yillar kesimida sezilarli o'zgarishsiz qolgan (1-3 nom oralig'ida). G02 guruhi - ginekologiyada qo'llaniladigan boshqa preparatlar ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, uterotonik preparatlar (G02A) 2022 yilda keskin oshib (8 nom), keyingi yillarda barqarorlashgan. Bu tug'ruq faoliyatini boshqarishda ushbu guruh dorilarining ahamiyati ortib borayotganini anglatadi. G02C kichik guruhi (boshqa preparatlar) 2020 yildagi 15 nomdan 2023 yilda 6 nomgacha kamaygan, 2024 yilda esa 4 nomni tashkil etgan, bu esa assortiment optimallashtirilganini ko'rsatadi. G03 guruhi - jinsiy gormonlar va reproduktiv tizim modulyatorlari nisbatan kam ulushga ega bo'lib, yillar davomida deyarli o'zgarmagan. Boshqa farmakoterapevtik guruhlar, jumladan L02 (gormonlar), H01 (gipofiz gormonlari), A01AB/D10AF (mahalliy antiseptiklar), J01 (tizimli antibiotiklar) va J02 (zamburug'larga qarshi preparatlar) kichik ulushni egallab, asosan

barqaror yoki minimal o'zgarish bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ATK kodi mavjud bo'lmagan preparatlar soni yillar davomida 1 tadan 4 tagacha o'zgarib turgan, bu esa ayrim dori vositalarining yangi yoki tasniflanmaganligini ko'rsatadi.

Umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha jami dori vositalari soni 2020 yildagi 48 nomdan 2022 yilda 65 nomgacha oshgan, keyinchalik 2023 yilda 62 nom va 2024 yilda 53 nomni tashkil etgan. Bu dinamikada dastlabki o'sish, so'ngra esa qisman qisqarish kuzatiladi, bu esa farmatsevtika bozorida assortimentni qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish jarayonlari bilan izohlanishi mumkin. Tahlil natijalariga asoslanib, akusherlik va ginekologiyada qo'llaniladigan dori vositalari assortimentida asosiy ulush mikroblarga qarshi preparatlarga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, ayrim guruhlar bo'yicha yangilanish darajasi past bo'lib, kelgusida innovatsion dori vositalarini joriy etish zarurati mavjud.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda ro'yxatdan o'tgan akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalarining farmakoterapevtik guruhlarini bo'yicha tahlili

ATK kodlari	Dori vositalarining farmakoterapevtik guruhlar nomi	Yillar														
		2020			2021			2022			2023			2024		
		xorijiy	MDH	mahalliy	xorijiy	MDH	mahalliy	xorijiy	MDH	mahalliy	xorijiy	MDH	mahalliy	xorijiy	MDH	mahalliy
<i>G01, Ginekologiyada ishlatiladigan mikrobgga qarshi preparatlar va antiseptiklar</i>																
G01A	Kortikosteroidlardan tashqari kombinirlangan mikrobgga qarshi preparatlar va antiseptiklar	22	4	-	39	3	-	43	3	10	4	-	11	36	-	12
G01B	Kortikosteroidlar bilan kombinirlangan mikrobgga qarshi preparatlar va antiseptiklar	1	-	-	3	-	-	2	-	-	3	-	-	3	-	-
<i>G02, Ginekologiyada ishlatiladigan boshqa preparatlar</i>																
G02	Ginekologiyada ishlatiladigan boshqa preparatlar	1	-	1	1	-	1	1	-	1	1	-	1	1	-	-
G02A	Uterotonik preparatlar	1	-	-	-	-	8	1	-	-	1	2	-	1	2	-
G02C	Ginekologiyada ishlatiladigan boshqa preparatlar	15	-	-	11	-	1	8	-	1	6	-	1	4	-	1
<i>G03, Jinsiy gormonlar va jinsiy organ modulyatorlari</i>																
G03X	Reproduktiv tizimning boshqa jinsiy gormonlari va modulyatori	1	-	-	1	-	-	2	-	-	1	-	-	1	-	-
<i>L02 O'smaga qarshi preparatlar</i>																
L02A	Gormonlar va tegishli birikmalar	2	-	-	2	-	-	2	-	-	2	-	-	2	-	-
<i>H01, Jinsiy gormonlar va insulindan tashqari, tizimli ta'sirga ega gormonlar</i>																
H01B	Gipofiz orqa bo'lagidan ajraladigan gormonlar	1	-	-	1	-	-	1	-	-	1	-	-	1	-	-
A01AB; D10AF	Mikroblarga qarshi preparatlar va antiseptiklar mahalliy qo'llash uchun	1	-	-	1	-	-	1	-	-	-	-	-	-	-	-
<i>J01, Tizimli ta'sir qiluvchi bakteriyaga qarshi preparatlar</i>																

J01X	Boshqa bakteriyalarga qarshi preparatlar	1	-	-	-	-	-	-	-	1	-	-	1	-	-	1
J02A	Tizimli davolashda qo'llaniladigan zamburug`ga qarshi preparatlar	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
	ATK kodi mavjud bo'lmagan preparatlar	1	1	1	3	1	1	4	1	1	4	-	-	4	-	-
	Jami:	48	5	2	62	4	11	65	4	14	62	2	14	53	2	14

Tahlilning keyingi bosqichida akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalarning tarkibi bo'yicha tahlil olib borildi. Dori vositalari tarkibida komponentlari soniga qarab guruhlariga ajratildi. Quyidagi 3-jadvalda bir komponentli preparatlar va murakkab tarkibli preparatlarning solishtirma tahlil natijalari keltirilgan.

3-jadval

Akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalarining tarkibi bo'yicha solishtirma tahlil natijalari

Preparatlar tarkibi	2020				2022				2024			
	xorijiy mamlakatl	MDH	mahalliy	jami	xorijiy mamlakatl	MDH	mahalliy	jami	xorijiy mamlakatl	MDH	mahalliy	jami
Bir komponentli	17	3	-	20	16	2	1	19	12	-	1	13
Ikki komponentli	10	1	-	11	15	1	4	20	11	1	4	16
Uch komponentli	8	1	-	9	16	1	6	23	13	1	8	22
Ko'p komponentli	13	-	2	15	18	-	3	21	17	-	1	18

Tahlil natijalariga ko'ra, bir komponentli preparatlar soni 2020 yilda 20 nomni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 19 nomga, 2024 yilda esa 13 nomgacha kamaygan. Bu esa so'nggi yillarda monokomponent preparatlarga nisbatan qiziqishning pasayib borayotganini va murakkab tarkibli dori vositalariga o'tish tendensiyasi mavjudligini anglatadi. Ikki komponentli preparatlar esa aksincha, 2020 yildagi 11 nomdan 2022 yilda 20 nomgacha oshgan, 2024 yilda esa 16 nomni tashkil etgan. Ushbu o'sish kombinatsiyalangan dori vositalarining klinik samaradorligi yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi. Uch komponentli preparatlar segmentida yanada sezilarli o'sish kuzatilgan: 2020 yilda 9 nom bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda 23 nomga yetgan va 2024 yilda ham yuqori darajada saqlanib qolib, 22 nomni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ko'p komponentli dori vositalarining amaliyotda keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Ko'p komponentli (to'rt va undan ortiq tarkibli) preparatlar soni 2020 yilda 15 nom bo'lgan, 2022 yilda 21 nomgacha oshgan, biroq 2024 yilda biroz kamayib 18 nomni tashkil etgan. Bu holat ham bozorning muvozanatlashuvi va assortimentning optimallashtirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar kesimida qaralganda, asosan xorijiy preparatlar ustunlik qilayotgani kuzatiladi. Shu bilan birga, mahalliy ishlab chiqarish ulushi ayrim segmentlarda asta-sekin ortib borayotgani ham qayd etiladi.

Keyingi bosqichda akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan bir komponentli dori vositalarining tarkibi bo'yicha tahlili amalga oshirildi. Unga ko'ra, 2020-2024 yillarda 84 ta,

ya`ni 23,1% xalqaro patentlanmagan monopreparatlar ro`yxatga olingan. Monokomponentli preparatlardan Policresulen, Triptorelin, Misoprostol tarkibli dori vositalari savdo nomi soni bo`yicha eng ko`p ro`yxatga olingan. Tahlil natijalari 4-jadvalda keltirilgan. Akusherlik va ginekologiyada qo`llaniladigan dori vositalarining tarkibi bo`yicha 2020, 2022 va 2024 yillar kesimida o`tkazilgan tahlil ularning komponent tarkibida muayyan o`zgarishlar va tendensiyalar mavjudligini ko`rsatdi.

4-jadval

Akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan bir komponentli dori vositalarining tarkibi bo`yicha tahlil natijalari

Bir komponentli preparatlar	2020			2022			2024		
	xorijiy mamlak	MDH	mahalliy	xorijiy mamlak	MDH	mahalliy	xorijiy	MDH	mahalliy
Agni casti fructus extractum siccum*	1	-	-	1	-	-	-	-	-
Agnus castus*	1	-	-	1	-	-	1	-	-
Agnus castus fruit*	1	-	-	-	-	-	-	-	-
Ascorbic acid	2	-	-	1	-	-	-	-	-
Aqueous extract Triticum vulgare*	-	-	-	1	-	-	1	-	-
Bacillus coagulans	1	-	-	-	-	-	-	-	-
Benzydamine*	2	-	-	-	-	-	-	-	-
Carbetocin*	-	-	-	1	-	-	1	-	-
Chlorophylliptum*	-	1	-	-	-	-	-	-	-
Cimicifuga racemosa rhizome*	1	-	-	-	-	-	-	-	-
Cimicifuga rootstock dry extract	1	-	-	1	-	-	-	-	-
Clindamycin	-	-	-	1	-	-	1	-	-
Clindamycin phosphate	1	-	-	1	-	-	-	-	-
Clotrimazole	1	-	-	1	-	-	-	-	-
Ketoconazole	-	-	-	-	-	-	1	-	-
Lactic acid	-	1	-	-	1	-	-	-	-
Lactobacillus rhamnosus*	1	-	-	-	-	-	-	-	-
Laminaria saccharina*	-	1	-	-	1	-	-	-	-
Miconazole nitrate	-	-	-	1	-	-	1	-	-
Misoprostol	1	-	-	1	-	-	1	-	-
Policresulen	1	-	-	2	-	1	2	-	1
Triptorelin	2	-	-	2	-	-	2	-	-
Ulipristal	-	-	-	1	-	-	1	-	-

5 yillik oraliqda akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan murakkab tarkibli preparatlar 76,3 % ro`yxatga olingan. Ular orasidan xorijiy davlatlarda, Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi mamlakatlarida va mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalar orasida ikki tarkibli, uch tarkibli va ko`p tarkibli preparatlar ko`p ro`yxatga olingan. Ro`yxatga olingan murakkab tarkibli preparatlardan 36,1

% uch tarkibli, 33,9 % ko'p tarkibli, 29,9 % ikki tarkibli preparatlarga to'g'ri keladi. Murakkab tarkibli preparatlarning tarkibida metronidazol, nistamitsin, klindamitsin, klotrimozol kabi dori moddalari kombinatsiyalangan.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida 2020-2024 yillardagi akusherlik va ginekologiyada ishlatiladigan dori vositalarning yangilanish indeksi $I_{ya} = m/M * 100$ % formula orqali [14], ya'ni yangi qayd etilgan dori vositalarning umumiy ro'yxatdan o'tgan dori vositalarga nisbati aniqlandi. Assortimentning yangilanish indeksi mazkur guruh bo'yicha yangi dori vositalari qayd etish tendensiyasini ko'rsatib beradi. Yangilanish indeksining eng yuqori ko'rsatkichi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida ishlab chiqaruvchi korxonalarining faoliyatida kuzatildi. Tahlil natijalari 5-jadvalda keltirilgan.


5-jadval

Davlat reestridan ro'yxatdan o'tgan akusherlik va ginekologiyada ishlatiladiga dori vositalarning yangilanish indeksi natijalari

Yillar	Xorijiy mamlakatlar			Mustaqil davlatlar hamdo'stligi			Mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalar		
	umumiy dori	yangilangan dori	indeksi %	umumiy dori	yangilangan dori vositalari	indeksi %	umumiy dori	yangilangan dori vositalari	indeksi %
2020	48	-	-	5	-	-	2	-	-
2021	63	10	15,9	4	-	-	11	2	18,1
2022	65	7	10,1	4	-	-	14	4	28,6
2023	62	5	8,1	2	-	-	14	1	7,1
2024	53	-	-	2	1	50	14	1	7,1


Tahlilning so'ngida xorijiy, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida hamda mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan dori vositalarining eng yuqori ko'rsatkichli ishlab chiqaruvchi, eng ko'p ishlab chiqarilgan dori shakli, farmakoterapevtik guruhi, xalqaro patentlanmagan nomi va yangilanish indeksleri bo'yicha ko'rsatkichlari makrokonturda quyidagi 4a, 4b va 4c - rasmlarda ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bo'yicha solishtirma tahlil jamlanma grafik ko'rinishida aks ettirildi.

Unga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan dori vositalarning 42,30 % Hindiston davlatida ishlab chiqarilgan va bu boshqa davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan dori vositalarga nisbatan yuqori ko'rsatkich. Bunga sabab aholi orasida Hindiston dori vositalariga talab kattaligidir. Dori vositalarning tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, 25,10 % monokomponentli preparatlar 74,90 %, murakkab tarkibli preparatlar ro'yxatdan o'tgan. Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan dori vositalarning dori shakli bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich, ya'ni 44 % shamchalar ko'rinishida ishlab chiqarilgan. Farmakoterapevtik guruhlardan 62,90 % kortikosteroidlarsiz kombinirlangan mikroba qarshi preparatlar va antiseptiklar tegishli. Xorijiy mamlakatlar dori vositalarining yangilanish indeksi 7,60 % teng. Natijalar jamlanmasi 4a- rasmda aks ettirilgan.




4a- rasm O`zbekiston Respublikasida ro`yxatdan o`tgan xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan dori vositalarining eng yuqori ko`rsatkichlari makrokonturi

Ro`yxatdan o`tgan mustaqil davlatlar hamdo`stligi mamlakatlarida ishlab chiqarilgan dori vositalarning 47,10 % Rossiya davlatining korxonalarida ishlab chiqarilgan va bu boshqa davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan dori vositalarga nisbatan ko`p eng kata ulushni egallaydi. Ishlatiladigan dori vositalarning tarkibi bo`yicha tahlil qilinganda 47,05 % bir komponentli preparatlar, 52,94 % murakkab tarkibli preparatlar ro`yxatdan o`tgan. mustaqil davlatlar hamdo`stligi mamlakatlarida ishlab chiqarilgan dori vositalarning dori shakli bo`yicha tahlil qilinganda eng yuqori ko`rsatkichni ya`ni 82.30 % shamchalar ko`rinishida ishlab chiqarilgan. Farmakoterapevtik guruhlardan 58.82 % kortikosteroidlarsiz kombinirlangan mikrobgga qarshi preparatlar va antiseptiklar tegishli. dori vositalarining yangilanish indeksi 50 % teng. Natijalar jamlanmasi 4b- rasmda aks ettirilgan.



4b- rasm O`zbekiston Respublikasida ro`yxatdan o`tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi mamlakatlarida ishlab chiqarilgan dori vositalarining eng yuqori ko`rsatkichlari makrokonturi

Ro`yxatdan o`tgan mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan dori vositalarning 58,82 % Merrymed Farm MCHJ korxonalarida ishlab chiqarilgan va bu boshqa davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan dori vositalarga nisbatan ko`p. Ishlatiladigan dori vositalarning tarkibi bo`yicha tahlil qilinganda 9,10 % monokomponentli preparatlar, 90,90% murakkab tarkibli preparatlar ro`yxatdan o`tgan. Natijalar jamlanmasi 4 c- rasmda aks ettirilgan.



4 c - rasm. O`zbekiston Respublikasida ro`yxatdan o`tgan mahalliy farmatsevtik korxonalarda ishlab chiqarilgan dori vositalarining eng yuqori ko`rsatkichlari makrokonturi

Mahalliy ishlab chiqarilgan dori vositalarning dori shakli bo`yicha tahlil qilinganda eng yuqori ko`rsatkichni ya`ni 81,80 % shamchalar ko`rinishida ishlab chiqarilgan. Farmakoterapevtik guruhlardan 38,18 % kortikosteroidlarsiz kombinirlangan mikrobg qarshi preparatlar va antiseptiklar tegishli. Mahalliy farmatsevtik korxonalarda ishlab chiqarilgan dori vositalarining yangilanish indeksi 14,54 % ga teng.

Xulosa. O`tkazilgan tahlillar shuni ko`rsatdiki, dori vositalarining asosiy ulushi xorijiy ishlab chiqaruvchilarga tegishli bo`lib, ayniqsa Hindiston, Germaniya va Argentina davlatlari yetakchi o`rinlarni egallaydi. Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi mamlakatlari orasida esa Rossiya Federatsiyasi ustunlik qiladi. Shu bilan birga, mahalliy farmatsevtik korxonalar tomonidan ham ishlab chiqarilayotgan dori vositalari soni ortib borayotganligi ijobiy holat sifatida baholandi.

Dori shakllari bo`yicha tahlil natijalariga ko`ra, amaliyotda eng ko`p qo`llaniladigan shakllar shamchalar, kapsulalar va tabletkalar ekanligi aniqlandi. Bu esa akusherlik va ginekologiya kasalliklarini davolashda mahalliy ta`sir etuvchi va qulay qo`llash shakllariga bo`lgan ehtiyoj yuqoriligini ko`rsatadi.

Farmakoterapevtik guruhlar kesimida mikroblarga qarshi preparatlar va antiseptiklar yetakchi o`rinni egallab, ularning ulushi eng yuqori ekanligi qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim guruhlar, xususan gormonal preparatlar va boshqa tor ixtisoslashgan vositalar bo`yicha yangilanish darajasi nisbatan pastligi aniqlandi.

Preparatlar tarkibi bo`yicha tahlil natijalari esa so`nggi yillarda murakkab, ya`ni ko`p komponentli dori vositalarining ulushi ortib borayotganini ko`rsatdi. Bu esa davolash samaradorligini oshirish va bir nechta patogenetik omillarga bir vaqtning o`zida ta`sir ko`rsatish zarurati bilan izohlanadi.

Shuningdek, assortimentning yangilanish indeksi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi mamlakatlari hissasiga to`g`ri kelishi, ushbu hududda yangi dori vositalarini joriy etish faolligi yuqori ekanligini ko`rsatadi.

Umuman olganda, akusherlik va ginekologiyada qo`llaniladigan dori vositalari assortimenti tarkiban boyib borayotgan bo`lsada, ayrim farmakoterapevtik guruhlar bo`yicha innovatsion preparatlarni joriy etish, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish hamda assortimentni yanada optimallashtirish dolzarb vazifa bo`lib qolmoqda

References:

1. Cao, Y., Guo, Y., Long, Z., Wu, Y., Pei, B., Ye, J., Zhang, M., Yuan, H., Jia, Y., Liu, X., Wang, F., & Zhao, Y. (2024). The Global Burden of Gynecological Diseases from 1990 to 2019. *American journal of preventive medicine*, 67(5), 698–704. <https://doi.org/10.1016/j.amepre.2024.06.022>
2. Zhu, B., Gu, H., Mao, Z., Beeraka, N. M., Zhao, X., Anand, M. P., Zheng, Y., Zhao, R., Li, S., Manogaran, P., Fan, R., Nikolenko, V. N., Wen, H., Basappa, B., & Liu, J. (2024). Global burden of gynecological cancers in 2022 and projections to 2050. *Journal of global health*, 14, 04155. <https://doi.org/10.7189/jog.14.04155>.
3. «Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» davolash muassasasining “polikistoz tuxumdon sindromining” klinik protokolidan. <https://akusherstvo.uz/protocolsuz#!/tab/825476758-1>
4. Jinhui Feng, Shitong Zhang, Jiadong Chen, Jue Zhu, Jie Yang. Global Burden of Endometriosis in 204 Countries and Territories from 1990 to 2019. *Clin. Exp. Obstet. Gynecol.* 2022, 49(10), 235. <https://doi.org/10.31083/j.ceog4910235>
5. Jumpy, I., Harun-Or-Rashid, M., Rustamov, O., Zakirova, N., Kasuya, H., & Sakamoto, J. (2012). Social correlates of female infertility in Uzbekistan. *Nagoya journal of medical science*, 74(3-4), 273–283. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC4831236/>
6. Bachadon bo`yni saratoni, belgilari, tashxis va davolash. <https://uza.uz/uz/menu>
7. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “bachadon bo`yni saratoni skrininggi, servikal intraepitelial neoplaziyani diagnostika va boshqaruv taktikasi” klinik protakolidan <https://Akusherstvo.Uz/Protocolsuz#!/Tab/825476758-1>.
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 296-sonli “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahamlash chora-tadbirlari” to`g`risidagi qarori.08.09.2023. <https://lex.uz/ru/>
9. O`zbekiston Respublikasining tibbiyot amaliyotida qo`llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri № 24 2020-yil-2022-06-01-18-13-03. <https://www.uzpharm-control.uz/>
10. O`zbekiston Respublikasining tibbiyot amaliyotida qo`llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri № 25 30.11.2021-yil. <https://www.uzpharm-control.uz/>
11. O`zbekiston Respublikasining tibbiyot amaliyotida qo`llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri № 26 16.12.2022-yil. <https://www.uzpharm-control.uz/>
12. O`zbekiston Respublikasining tibbiyot amaliyotida qo`llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri № 27 27.12.2023-yil. <https://www.uzpharm-control.uz/>
13. O`zbekiston Respublikasining tibbiyot amaliyotida qo`llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri № 28 29.11.2024-yil. <https://www.uzpharm-control.uz/>
14. Rajabova N.X, Suyunov N.D. O`zbekiston Respublikasida ro`yxatdan o`tgan saratonga qarshi dori vositalarning tahlili // *Farmatsevtika jurnali*, №4, 2020 3-9-betlar